



ALPOMISH DOSTONIDA QO'LLANGAN SHAKLDOSH LEKSEMALARNING DIALEKTAL TARKIBI

Jumayev Sanjar Ro`ziboy o`g`li

Termiz davlat Pedagogika instituti magistranti, Termiz, O`zbekiston

Annotatsiya: "Alpomish" dostonida shakldosh leksemalar dialektal jihatdan tahlil qilinib, o`z va ko`chma ma`nolarda qo`llangan so`zlarning ma`no xususiyatlarini ochib berilgan. Maqolada "Alpomish" dostonida ifodalangan shakldosh leksemalarning dialektal jihatdan o`rganilishi lug`atlar asosida yoritib beriladi.

Kalit so`zlar: "Alpomish" dostoni, shakldosh so`zlar, dialektal so`zlar, o`z ma`no, ko`chma ma`no, ko`p ma`no, leksema, lug`at.

ДИАЛЕКТНАЯ СТРУКТУРА ПОДОБНЫХ ЛЕКСЕМ В ЭПОСЕ АЛПОМЫШ

Джумаев Санжар Розибой оглы

Термезский государственный педагогический институт магистрант, Термиз,
Узбекистан

Абстрактный: этических лексем «Алпомыш» диалектически анализируются и выявляются семантические особенности слов, употребляемых в собственном и переносном значениях. В статье на основе словарей освещается диалектное изучение однотипных лексем, выраженных в эпосе «Алпомыш».

Ключевые слова: саги «Алпомыш», однокоренные слова, диалектные слова, исконное значение, переносное значение, лексема, много значений, словарь.

DIALECTAL STRUCTURE OF SIMILAR LEXEMES USED IN ALPOMISH EPIC

Jumayev Sanjar Roziboy oglu

Termiz State Pedagogical Institute master's, Uzbekistan, Termiz

Abstract: "Alpomish" epic lexemes are dialectally analyzed and the semantic features of the words used in their own and figurative meanings are revealed. In the article, the dialectal study of similar lexemes expressed in the epic "Alpomish" is highlighted on the basis of dictionaries.

Key words: "Alpomish" saga, similar words, dialectal words, original meaning, figurative meaning, lexeme, many meanings, dictionary.



Alpomish dostoni dostonlar ichida eng ko'p aytilgan dostonlar turiga kiradi. Oldinlari baxshilar bir-birlari bilan bahslashmoqchi bo'lsa, Alpomish dostonini aytib bahslashganlar. Biroq, Alpomish dostonining 30 dan ortiq baxshidan, 40 dan ko'proq turi yozib olingan.

Alpomish dostoni bizning qadimgi o'tmishimizni eslatib turishi bilan birgalikda, bizning insonparlik va vatanga sadoqat tuyg'ularimizni oshirishimizga yordam beradi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning —Alpomish dostonining 1000 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan bayram tantanalarida aytgan quyidagi fikrlari barchamiz uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi: —Alpomish dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozarlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.⁵⁰

“Alpomish” dostoni ham tilshunoslik jihatidan ham adabiyot jihatidan tahlil qilib o'rganiladigan asarlar sirasiga kiradi.

Alpomish dostonida Surxondaryo viloyatidagi tumanlarda hozirgi kunda va oldingi paytda ishlatilgan leksemalar juda o'rinni qo'llangan. Har bitta leksemaning kelib chiqish tarixi dostonidagi maqol va liro-epik ifodalarda yaqqol ifodalab berilgan. Bu dostonida shakldosh leksemalar yetarlicha qo'llanilgan bo'lib, dostonning mazmuni va ahamiyatini ochib berishda katta rol o'ynagan.

Alpomish dostonida qo'llangan shakldosh so'zlarning dialektal tarkibini tahlil asosida yoritib berishga harakat qilamiz. Dialekt so'zi yunoncha so'z bo'lib, lahja, sheva degan ma'noni anglatadi. Ya'ni so'zlarning shevalarda atalishi va o'rganilishi deb tushunsak bo'ladi. Tahlildan oldin bitta narsaga to'xtalib o'tsak, gapda bir xil yoki bitta so'z qo'llanilib ikki va undan ortiq ma'noda keladigan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi. Masalan, ot, qo'y, quy, tort, bel va h.k

Shakldosh so'zlar ko'p ma'noli so'zlarga o'xshaydi. Ammo, gap mazmunidan bilib olsa bo'ladi. Gapda kamida ikkita so'z kelib, ikkalsi ham o'z ma'no bo'lsa, shakldosh so'z. Gapda kamida ikkita so'z kelib, bitta o'z ma'no, bitta ko'chma ma'no bo'lsa, ko'p ma'noli so'z hisoblanadi. Masalan, qozonning qulog'i - ko'p ma'no, odamning qulog'i- o'z ma'no.

Lodon - voyaga yetmagan yosh bolaga nisbatan ishlatiladigan so'z. O'n yetti-o'n sakkiz yoshdan bolalar balog'atga yetsa, undan kichiklari voyaga yetmagan hisoblanadi. Bu yoshda farzandlar kattalar tomonidan boshqariladi. Ya'ni ular o'yinqaroq bo'lib, nima to'g'ri nima noto'g'ri ekanligini fikrlay olmaydi.

Lodon-beo'y, beo'ylov, oxiratni o'ylamagan, beaql kishiga nisbatan ishlatiladi. Dostonida aynan mana shu ma'nosida kelgan.

Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'lmagin,

Lodon ko'ngling har xayolga bo'lmagin,

Mungg'ayib enangni xafa qilmagin.⁵¹

Barchin qalmoq yurtiga ko'chib ketayotgan paytda, onasi Barchinga maslahat aytadi. “Sen beaql bo'lmagin, otang har na desa xo'b degin, oxiratni o'ylagin ota rozi-

⁵⁰ Karimov I.A. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi.

⁵¹ Xalq og'zaki ijodi-Alpomish dostoni. “Yangiyul Poligraf service” Toshkent-2019



xudo rozi, otangni so'zidan chiqmagin "- deydi.

Talon - talov, yeb bitirmoq, ship-shiydam qilmoq, hamma narsasini tortib olmoq yoki haq to'lash degan ma'noda ishlatiladi. Dostonda keltirilgan quyidagi parchaga e'tibor qaratsak...

*G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor, Ko'ch bilan birgadir bul zamon boylar, Mamlakatni bosib adadsiz qo'ylar Yetgan joyga bul ajab talon tushdi*⁵²

Boysari o'z yurtidan kechib, Qalmoq yurtiga kelgandan keyin bu yurtda yashayotgani va yaylovlardan foydalanayotgani uchun ma'lum miqdorda pul solig'i ya'ni talon beradi. Agar belgilangan pul talonni bermasa, keyin hamma narsasini tortib oladi.

Talon- Bosqinchilar tomonidan xalqning mol-mulkini talon-taroj qilish. Xalqdan so'rab o'tirmasdan, nima moli va qimmatbaho buyumlari bo'lsa zo'rlab, majburlab talab, talon-taroj-qilish.

Talon- (fransuzcha) Biron narsani so'rab olish yoki biron joyga bemalol kirish huquqini beradigan nazorat varaqchasi. Masalan, bozorlarda erkin savdo qilish uchun savdogarlar talon varaqchasini tegishli odamga ko'rsatgan va emin-erkin begona joylarda yurib savdo qilgan.

Nor- (arabchada) olov, yong'in, do'zax⁵³ degan ma'noni anglatadi. Bizda ya'ni o'zbek tilida nor so'zini olovga nisbatan ishlatilmaydi. Lekin, arablarda ishlatiladi.

Nor- (fransuzcha) tamg'a, belgi, dog' degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ham adabiy tilda ham o'zbek shevalarida ishlatiladi. Oilada katta xol bilan tug'ilgan bolani nori bor ekan deyiladi. U bola qiz bo'lishi ham mumkin ham o'g'il bo'lishi ham mumkin. Nor so'zining bu ma'noda ishlatilishi diniy urf-odatlar bilan ham bog'liq. Xalq orasida o'sha dog' bilan tug'ilgan bolaga "Nor" so'zi bilan ism qo'yilsa, qizlarga Norgul, Norbibi; o'g'il bolalarga Normurod, Norsulton kabi ismlar qo'yiladi. Va o'sha dog' kamayadi yoki butkul yo'qoladi degan qarash bor.

Nor- katta o'rkachi bor, erkak tuyaga nisbatan ham aytiladi. Qatorida noring bo'lsa, yoking yerda qolmaydi.⁵⁴

Nor - mol-mulk degan ma'noni ham anglatadi. Alpomish dostonida aynan mana shu ma'noda kelgan.

*Men berayin qator-qator norimni, Nor ustiga yuklab beray zarimni, Men berayin manglayimda borimni.*⁵⁵

Bu misralarni tahliliga e'tibor qaratsak, qalmoqlar Boysarini siquvga olganda xohlaganingizcha mol-mulkimni berayin, sizlar nima desalaring men roziman deydi.

Tir- so'zi forschada kamon o'qiga nisbatan ishlatiladi. Har balodan asraguvchi tiring bo'lsin yoningda deyiladi.

Tir - teng, sherik, hamroh degan ma'noni anglatadi. O'zbek tili judayam boy til

⁵² O'sha kitob

⁵³ O'zbek tilining 35285 talik izohli lug'atidan

⁵⁴ O'zbek xalq maqollari

⁵⁵ O'sha kitob



hisoblanadi. Chunki, shevalari judayam ko'p. O'zbeklarda qo'ng'irotd degan urug' bor. O'sha urug'da bu so'z teng, sherik deb ishlatiladi. Ya'ni ikkita bola yoki odam bir paytda tug'ilgan, yoshi teng bo'lsa, tengi deb ishlatiladi. Yoki birga yuradigan odamlarni bir-biriga nisbatan sherigi deb ham atashadi. Dostonda ham aynan shu ma'noda kelgan.

*Shu yettoviga tir qilgani Qalmoqshoh har mamlakatlardan alplami olib kelib, to'qson alp qilib, Kashal g'oridan joy berib, bulami to'qayistonda boqib yotar edi.*⁵⁶

Surxayil kampirning yettita o'g'li bo'lib, hammasi bir-biriga hamroh, sherik edi. Bularni esa qalmoqlar xoni pul bilan ta'minlab turardi. To'qson alp esa, yurtni yovlardan himoya qilar edi.

Me'roji – (arabcha) yuqoriga ko'tarilish, osmonga parvoz qilish degan ma'noni anglatadi. Muhammad (S.A.V) me'rojga chiqib, Buroq otda Alloh bilan “Qobbi qobzayin” ikki qosh yaqinligicha masofada uchrashgani aytiladi.

Me'roji - sarasi, yaxshisi, balandi deagan ma'noda ham ishlatiladi. Bu ma'no o'zbek shevalarida ko'proq ishlatiladi. Dostonda ham shu ma'noda qo'llangan.

*Qorajon ham yigitlaming me'roji,
Mening aytgan gapim bunda bilsang-chi,
Qorajonni kuyov qilib olsang-chi,
Rasmi-qa'dang menga ma'lim qilsang-chi.
Nima deb amr etsang ani berayin,*⁵⁷

Oybarchinning go'zalligi qalmoq ahliga tarqaladi. Bu xabar Surxayil kampirga ham yetadi. O'zbeklar oldiga borib, Barchinning onasiga Qorajon o'g'lini yigitlarning yaxshisi, sarasi deb maqtaydi. Qizingni bersang shunday yigitga berasanda deydi...

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Alpomish dostoni o'zbek xalqining tarini o'zida mujassam etgan asardir. Unda qo'llangan shakldosh so'zlar bir xil ma'noda qo'llanilmasdan turxi xil ma'nolarda qo'llanilib, o'zbek tilining ko'p ma'nolik xususiyatini ochib bergan. Alpomish dostonidagi qo'llangan shakldosh lug'atlar orqali hozirda mavhum bo'lgan so'zlarning ma'nolarini bilib olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. Ma'naviyat-2008
2. Xalq og'zaki ijodi-Alpomish dostoni. “Yangiyul Poligraf service” Toshkent-2019
3. Boboev M. «Doston va hayot» T., 1982
4. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. T., 1968
5. Sarimsoqov B. Ozbek fol'klorining janrlari sostavi. «Ozbek fol'klorlari ocherki» 3-tomlik, T., 1988
6. O'zbek tilining 35285 talik izohli lug'atidan
7. Saidov M. Ozbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat T., 1969

⁵⁶ O'sha kitob

⁵⁷ O'sha kitob



8. Abdulaev X. Xalq dostonlari va ularning variantlari. T., 1984
9. Umarov S. «Tarix va doston» T., 1985
10. O'zbek xalq maqollari
11. Jamoa. «Alpomish»-qahramonlik eposi» T., 1999
12. Boboev M. «Doston va hayot» T., 1982

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://kh-davron.uz>
2. google.com
3. Ziyonet.uz